

QO'SHMA QARORI

2026-2028 yillar uchun tuzilgan Tarmoq jamoa kelishuvini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, «Aholi bandligi to'g'risida»gi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, O'zbekiston Ish beruvchilari Konfederatsiyasi o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha 2026-2028-yillar uchun imzolangan Bosh jamoa kelishuvi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilib, ijtimoiy sherikchilik tamoyillarni qo'llab mehnatkashlarning huquqlari va manfaatlari himoyasini amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi hamda O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi

QAROR QILADI:

1. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tizimidagi tashkilotlar xodimlarining mehnat sharoitlari, ularga taqdim etiladigan ijtimoiy imtiyoz va kafolatlar to'g'risidagi 2026-2028 yillar uchun tuzilgan Tarmoq jamoa kelishuvi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kelishuvni Ish beruvchilar nomidan imzolash Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i S.Q.Eshquvvatovga va mehnat jamoalari nomidan O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi raisi A.K.Nugmanovga topshirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonunining 49-moddasiga muvofiq Tarmoq darajasida doimiy asosda faoliyat olib boruvchi Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiyasi tarkibi *1-ilovaga*, "Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya to'g'risida"gi Nizom *2-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

4. **Tarmoq darajasida doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiyaga:**

- Tarmoq jamoa kelishuvida belgilangan imtiyoz va kafolatlarni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tizimidagi xodimlarga to'liq tadbiiq etilishi borasidagi ishlarni yo'lga qo'yish;

- Tarmoq jamoa kelishuvining 2026-2028 yillarda to'liq bajarilishini ta'minlash;

- Tarmoq jamoa kelishuvining amal qilinishi ushbu Kelishuvni tuzgan tarmoq tarkibidagi xodimlar vakilliklari va ish beruvchilarga nisbatan tatbiq etilishini inobatga olgan holda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tizimdagi barcha tashkilot va korxonalarni O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish xodimlari kasaba uyushmasi xizmatiga olishni tashkil etish bo'yicha chora tadbirlar ko'rish;

- tizimdagi korxonalarda Tarmoq jamoa kelishuvi bilan jamoa shartnomalarining muvofiqligini, jamoa shartnomalarining oxirgi tavsiya qilingan maketlarga mosligini hamkorlikda o'rganish va qat'iy nazoratga olish;

- Tarmoq jamoa kelishuvi bajarilishining yillik yakunlari to'g'risida axborot tayyorlab, tarmoq kasaba uyushmasi Respublika Kengashi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi qo'shma majlisida muhokama qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tarkibiga kiruvchi barcha tashkilotlarning rahbarlariga:

- Tarmoq jamoa kelishuvi bilan o'rnatilgan majburiyatlarni bajarish;
- tizimdagi korxonalar va tashkilotlarni O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish xodimlari kasaba uyushmasi xizmatiga o'tkazish;
- rahbarlik qilayotgan korxonalarida Tarmoq jamoa kelishuvi bilan jamoa shartnomalarining muvofiqligini ta'minlash choralari ko'rish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur Kelishuv bajarilishi ustidan nazorat Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi hamda O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tomonidan tuzilgan Tarmoq darajasida doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha ikki tomonlama komissiyasiga yuklatilsin.

*Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi
sohasida nazorat qilish inspeksiyasi
boshlig'i*

S.Q.Eshquvvatov



2026-yil

*O'zbekiston transport, yo'l va kapital
qurilish, qurilish industriyasi xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika Kengashi*

raisi

A.K.Nugmanov

2026-yil 22.01 N=2-11 "C"



Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining 2026-yil "___" _____ dagi _____ - sonli va O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining 2026-yil "___" _____ dagi _____ - sonli qo'shma qaroriga
1-ilova

**Tarmoq darajasida doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi
Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya
TARKIBI**

№	FISH	Lavozimi
1.	Sadikov A.A.	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari, hamrais
2.	Muxamedxanov Sh.S.	O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi raisi o'rinbosari, hamrais
3.	Abdazimov E.M.	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti raisi, a'zo
4.	Chariyva Sh.Sh.	O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi, a'zo
5.	Mo'minjonov M.Q.	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining yuridik ta'minlash bo'limi boshlig'i
6.	Shadiyev D.B.	O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining bosh mehnat texnik inspektori, a'zo

Nizomga muvofiq Komissiya tarkibidagi xodimlar boshqa ishga o'tganda yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganda Komissiya tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan (saylangan) yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.



Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining 2026-yil "____" ____dagi ____ - sonli va O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining 2026- yil "____" ____dagi ____ - sonli qo'shma qaroriga
2-ilova

Tarmoq darajasida doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tarmoq darajasida doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiyani (keyingi o'rinlarda "Komissiya" deb ataladi) tashkil etish va ularning faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Komissiya o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi va mehnat sohasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ijtimoiy sheriklik organi hisoblanadi.

2. Komissiya quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi:

- tarmoq tizimida xodimlarning mehnat huquqlarini, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi va O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi (keyingi o'rinlarda Taraflar deb ataladi) o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish;

- tarmoq jamoa kelishuvini tuzish hamda ularning ijrosini nazorat qilish orqali ijtimoiy-mehnat munosabatlarini jamoa shartnomalari asosida tartibga solishga ko'maklashish;

- Xalqaro mehnat tashkilotining (keyingi o'rinlarda XMT deb ataladi) 1981-yilgi "Jamoa muzokaralarini olib borish to'g'risida"gi 154-sonli Konvensiyasiga muvofiq mehnat va bandlik sharoitlarini aniqlash, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha jamoa muzokaralariga ko'maklashish.

3. Komissiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, boshqa qonun hujjatlariga, XMT Konvensiyalari va Tavsiyalariga hamda ushbu Nizomga amal qilib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunida belgilangan ijtimoiy sheriklik prinsiplariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

II. Komissiyaning vazifalari va huquqlari

2.1. Quyidagilar Komissiyaning **asosiy vazifalari** hisoblanadi:

✓ tarmoq tizimidagi xodimlar va ish beruvchilarning mehnat huquqlarini, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazish va taraflar pozitsiyalarini kelishish;

✓ mehnat sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlarni amalga oshirishga, shu jumladan, birlashishga va jamoa muzokaralari olib borishga doir huquqlarni amalga oshirishga ko'maklashish;



- ✓ bolalar mehnatining majburiy va eng yomon shakllariga barham berish, kamsitmaslik, teng huquqlar, teng imkoniyatlar va teng qiymatli mehnat uchun teng haq to'lash prinsiplariga rioya qilish;
- ✓ tizimdagi ish haqi masalalari yuzasidan maslahatlashuvlar o'tkazish, tarmoq ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashish;
- ✓ yilda kamida bir marta kengaytirilgan yig'ilish tashkil qilib, kasaba uyushmasi savollariga mutasaddi tashkilotlarning javob berishini tashkil qilish;
- ✓ pozitsiyalar, huquqlar va manfaatlarni o'zaro hisobga olish asosida muammoli vaziyatlar yuzasidan amaliy hamkorlikni ta'minlash;
- ✓ mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqilishida, ularni takomiliga yetkazish yuzasidan takliflar kiritilishida, shuningdek, mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha yangi takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish;
- ✓ tarmoqni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha taraflarning hamkorlik mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;
- ✓ tarmoq jamoa kelishuvi tuzish va uning ijrosini nazorat qilish orqali ijtimoiy-mehnat munosabatlarini jamoa shartnomasi asosida tartibga solishga ko'maklashish, bu boradagi muammolarni tahlil qilish;
- ✓ mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini yaratishda ishtirok etish;
- ✓ taraflar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha tarmoq jamoa kelishuvi va uni amalga oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, shuningdek, uning bajarilishini nazorat qilish;
- ✓ xodimlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish, ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar sohasida tegishli xorijiy tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish, xalqaro mehnat normalarini qo'llash bilan bog'liq masalalar yuzasidan monitoring va maslahatlashuvlar o'tkazish;
- ✓ ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy-mehnat munosabatlari sohasida tegishli xorijiy tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish;
- ✓ XMT normalarini ratifikatsiya qilish va qo'llash bilan bog'liq masalalar yuzasidan takliflar tayyorlash, maslahatlashuvlar o'tkazishni tashkil etish;
- ✓ xodimlarning mehnat huquqlarini ta'minlashda XMT standartlarini qo'llash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish.

2.2. Quyidagilar Komissiyaning **huquqlari** hisoblanadi:

- ✓ odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish Milliy komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va mehnat munosabatlari sohasidagi xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
- ✓ tarmoq jamoa kelishuvining bajarilishi, tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, shuningdek, ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida vakolatli davlat organlaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborot olish;
- ✓ davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, Ish beruvchilar tashkilotlari va kasaba uyushmalari mansabdor shaxslarining ijtimoiy-mehnat munosabatlar masalalari bo'yicha ma'ruzalarini (axborotini) eshitish;

✓ tarmoqqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va davlat dasturlari, aholi bandligini ta'minlash dasturlarini tayyorlash bo'yicha komissiya tarkibiga o'z vakillarini tavsiya qilish, o'z majlislarida tegishli takliflarni ko'rib chiqish;

✓ komissiya ko'rib chiqishi uchun kiritiladigan masalalarni tayyorlashga Ish beruvchilar birlashmalari va kasaba uyushmalari, shuningdek, tashkilotlar vakillarini jalb qilish;

✓ jamoa muzokaralari va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga soladigan tarmoq kelishuvlarini tayyorlash, ushbu Tarmoq jamoa kelishuvini amalga oshirish jarayonida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish bo'yicha Respublika va hududiy komissiyalar bilan hamkorlik qilish;

✓ hamkorlik bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish, ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish;

✓ o'z faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish.

Komissiya ushbu Nizom va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

III. Komissiya tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

3.1. Komissiya tarkibiga har bir tomondan hal qiluvchi ovozga ega kamida uch nafardan vakil, shu jumladan bir nafar hamrais (tenglik prinsipi asosida) kiritiladi. Komissiyasida Inspeksiya va Respublika Kengashi rahbarlari yoki o'rinbosarlari hamraislar, a'zolari esa ushbu tashkilotlarning mas'ul xodimlari bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

3.2. Komissiyaning a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan (saylangan) yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

3.3. **Komissiya raisi** quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Komissiya majlislarida raislik qilish;
- Komissiya ish rejasiga takliflar kiritish;
- Komissiya majlislarini chaqirish, uning ishchi organlari faoliyatini, majlislarda ko'rib chiqilayotgan masalalar tayyorlanishini va qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash, shuningdek, har yarim yillikda taraflarni qarorlar bajarilish jarayonidan xabardor qilish;
- taraflar hamkorligiga va Komissiya qarorlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ular o'rtasida kelishuvga erishilishida ko'maklashish;
- lozim bo'lsa, Komissiya ishida ishtirok etish uchun ularning tarkibiga kirmaydigan mansabdor va boshqa shaxslarni taklif qilish hamda o'z vakolati doirasida boshqa funksiyalarni bajarish.

3.4. Hamraislar taqdimnomasi bo'yicha Komissiya raisi tomonidan shakllantiriladigan kotibiyat komissiyaning ishchi organi hisoblanadi. Kotibiyat tarkibiga har bir tomondan bittadan vakil kiritiladi.

3.4. **Komissiya kotibiyati** quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Komissiya majlislariga tayyorgarlik ko'rish;
- Komissiya qarorlari ijrosini nazorat qilish;
- Komissiya a'zolarini olib borilayotgan tadbirlardan xabardor qilish;
- Komissiya ish rejalarini tayyorlash;
- Komissiya ish yurituvini amalga oshirish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ish beruvchilar va xodimlar tashkilotlari, zarur hollarda esa korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan tezkor aloqani amalga oshirish;



- ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish.

3.5. Komissiya o'z faoliyatini tarmoq jamoa kelishuvida keltirilgan masalalar asosida va ijtimoiy-mehnat sohasidagi masalalarni zudlik bilan hal etish zaruratini hisobga olib tashkil etadi.

3.6. Komissiya majlisi yilda bir marta chaqiriladi. Majlis kun tartibi kotibiyat tomonidan ish rejasi va hamraislarning kelishilgan takliflari asosida tuziladi.

3.7. Komissiya hamraisi majlis o'tkaziladigan sana, vaqt, joy va uning kun tartibi to'g'risida Komissiya a'zolarini oldindan, biroq majlisdan kamida 10 kun avval xabardor qiladi.

3.8. Komissiya majlisi, agar unda har bir tomondan a'zolarining kamida yarmi ishtirok etgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

3.9. Komissiya qarori kelishuv asosida yoki agar kelishuv bo'lmasa, har bir tomondan bittadan ovoz prinsipi bo'yicha ovoz berish orqali qabul qilinadi. Komissiya qarori **QO'SHMA QAROR** shaklida qabul qilinib, hamraislar tomonidan imzolanadi va quyi tashkilotlarga ijro uchun yuboriladi.

3.10. Qarorlarni tez qabul qilish maqsadida Komissiya hamraisi Komissiyaning alohida masalalari bo'yicha so'rov orqali a'zolar bilan kelishilgan qarorlarni tasdiqlashi mumkin.

3.11. Komissiyaning vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlarini Taraflar idoraviy ichki qarorlarini qabul qilish orqali amalga oshiradi.

IV. Komissiya a'zolarining huquq va majburiyatlari

4.1. Komissiya a'zolari **quyidagi huquqlarga** ega:

- ko'rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda va Komissiya qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish;
- Komissiya majlislarida ko'rib chiqish uchun Komissiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ish beruvchilar va xodimlar tashkilotlari rahbarlariga, shuningdek bevosita tashkilotlarga Komissiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan so'rovlar bilan murojaat qilish;
- normativ-huquqiy hujjatlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari loyihalari, statistika, axborot va ma'lumotnoma materiallari bilan belgilangan tartibda tanishish.


4.2. Komissiya a'zolarining **majburiyatlari quyidagicha**:

- Komissiya faoliyatiga taalluqli hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- Komissiya qarorini ijro etishga ko'maklashish;
- ish beruvchilar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini Komissiya faoliyati va tarmoq jamoa kelishuvi ijrosining borishidan muntazam xabardor qilish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Komissiya faoliyati to'g'risidagi axborotning maxfiyligiga rioya qilishi va uni oshkor etmaslik.

V. Komissiya qarorlari ijro etilishini nazorat qilish va Taraflar javobgarligi

5.1. Komissiya qarorlarining ijrosini Taraflar mustaqil nazorat qiladilar.

5.2. Komissiyaga bir yilda kamida bir marta tarmoq jamoa kelishuvini amalga oshirish yakunlari to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqish uchun kiritiladi.



5.3. Taraflar kotibiyatga tegishliligiga ko'ra tarmoq jamoa kelishuvini amalga oshirish yakunlari va Komissiya tomonidan qabul qilingan qo'shma qarorlar to'g'risidagi yozma axborotni yuboradi.

5.4. Yig'ilishlarda uzrsiz sababga ko'ra ishtirok etmagan yoki Komissiya yig'ilish bayonnomasidagi topshiriqlarni bajarmagan Komissiya a'zolariga nisbatan intizomiy chora ko'rilishi bo'yicha Ish beruvchiga rasmiy xulosa kiritilishi mumkin.

